

**“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI”**

Hamraboyeva Mohigul Jo‘raboyevna

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularni izchil rivojlantirib borish shart-sharoitlari, bolalarning tengdoshlari hamda kattalar bilan muloqot jarayonida erkin ishtirok etish ko‘nikmalarini takomillashtirish orqali ularni mustaqil hayotga tayyorlash, natijada esa muloqotchanlik sifatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy qobiliyat, kompetensiya, erkin ishtirok, kasbiy ko‘nikmalar, o‘zaro munosabat, faoliyat, samara, til, nutq, noverbal vositalar, verbal vositalar, muloqot.*

Bugun mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya, jumladan, boshlang‘ich ta‘lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarida ularning tengdoshlari va atrofdagilar bilan muloqotga kirishishida bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy rivojlanishga oid fikr va mulohazalar barcha jabhadagi muvaffaqiyatlarimizning dasturulamali sanaladi. Jumladan, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari tomonidan jamiyatda qabul qilingan me‘yor va talablarni o‘zlashtirish, milliy-ma‘naviy qadriyatlarni anglash, tengdoshlari, kattalar bilan bo‘ladigan muloqotni rivojlantirish, muloqotda mustaqil bo‘lish, o‘z xatti-harakati va qarashlarini maqsadli yo‘naltirish, ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish, tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyatga tayyor turish, kattalar va o‘rtoqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi talablarni amalga oshirishda ham mazkur fikr va mulohazalar katta ahamiyatga ega. Bolaga boshlang‘ich ta‘lim yoshidan boshlab to‘g‘ri so‘zlashga o‘rgatilib borilsa, normal holatda rivojlanadi, unda tasavvur, tafakkur, idrok etish, fikr yuritish qobiliyatlari paydo bo‘ladi va bu qobiliyatlar tinimsiz takomillashib boradi. Bu takomillashish asnosida bola ulg‘aygan sari o‘zini qurshab turgan olamga, ijtimoiy muhitga, voqea-hodisalarga qiziqish bildiradi. Mazkur qiziqishlarini ifodalash uchun u, albatta, nutqdan foydalanadi. Bola nutqining normal holatda bo‘lishida, so‘z boyliklari doirasining kengayishida, shu bilan bir qatorda, maktab ta‘limiga sifatli tayyorlanishida kommunikativ kompetentsiyaning o‘rni beqiyosdir. Boshlang‘ich ta‘lim yoshidagi o‘quvchilarga ta‘lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bolani nafaqat maktab ta‘limiga tayyorlash, balki uning shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda “men” timsolini yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ham ko‘zda

tutadi. Kommunikativ kompetentsiya bola shaxsini, aql-zakofatini, dunyoqarashini shakllantirish, rivojlantirishda asosiy mezon sanalar ekan, avvalo, “Unga xizmat qiluvchi bola nutqi qanday bo‘lishi kerak?” degan savolning paydo bo‘lishi tabiiy. O‘quvchilarda nutqiy muloqat madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga quyidagi masalalarga e’tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga odatlantirish (bolada, avvalo, nutq eshitish, so‘ngra so‘zlarni talaffuz qilish shakllanadi);
- so‘z va so‘z birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish;
- so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yishga o‘rgatish;
- nutq sur‘atini rivojlantirish;
- nutqning ifodaviyligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya’ni ongli ifodalanishiga erishish);
- nutqiy aloqa ko‘nikmalarini tarbiyalash;
- nutqiy eshitish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- nutq jarayonida to‘g‘ri nafas olishga o‘rgatish;
- o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish;
- bo‘g‘lanishli nutq hosil qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. “Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida”gi Farmoni., 2017
2. Mirziyoyev Sh. “Kasb-hunar ta’limini rivojlantirishga oid” qarori. 2020
3. Abdulmadjidova, M. Muloqot–Bola Psixik Rivojlanishining Muhim Omili. Barqarorlik va yetakchi. 2021.
4. Rahmatova Z.H. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o‘stirish vositalarini yaratishning lingvistik asoslari: Fil. fan. b. f. dok. (PhD) ... diss. – Qarshi, 2021. – 141 b.
5. Qosimova N.A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilar nutqini so‘z ma’nodoshlari bilan boyitish: Ped. fan. nom. diss. – Toshkent, 1998. – 22 b.
6. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматингвистик аспекти: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2018. – 160 б.